

«TASDIQLAYMAN»

G'ijduvon tuman Hokimligi
Xarid komissiyasining raisi

«18»  B. Tolibov
2022 yil

**G'IJDUVON TUMAN HOKIMLIGIGA QARASHLI BIYOSIN MFYDA
JOYLASHGAN ESKI BINONI JORIY TA'MIRLAB HAMDA SHU
BINOGA KUTUBXONA OCHISH ISHLARI LOYIHA SMETA
XUJJATLARINI TAYYORLASH UCHUN**

TANLOV HUJJATI

G'ijduvon tuman - 2022 yil

Tanlov xujjatlarining mazmuni:

I. Tanlov ishtirokchilari uchun yo'riqnoma

II. Texnik qism

III. Narxlar qismi

TANLOV ISHTIROKCHISI UCHUN YO'RIQNOMA

1.TANLOV PREDMETI VA TAXMINIY QIYMATI

1.Tanlov predmeti: G'ijduvon tuman Hokimligiga qarashli Biyosin MFYda joylashgan eski binoni joriy ta'mirlab hamda shu binoga kutubxona ochish ishlariga loyiha xujjatlarini tayyorlash .

1.2.Tanlovning yuqori qiymati– 18 000 000 (o'n sakkiz million) so'm. Ushbu qiymatdan ortiq qiymatdagi takliflar qabul qilinmaydi va ko'rib chiqilmaydi.

1.3.Maxsulot bo'yicha Texnik topshiriq tanlov xujjatlarining texnik qismida ilova qilingan.

Ushbu tanlov yakunlari bo'yicha g'olib chiqqan bajaruvchi tashkilot bilan shartnoma tuziladi.

1.4.Ishlarni bajarish muddati: G'olib bo'lgan qatnashchi bilan shartnoma imzolangan kundan boshlab tuzilgan nuqson dalolatnomasiga asosan belgilangan grafik bo'yicha.

1.5.Ishlarni boshlash muddati – avans mablag'i o'tkazilgan kundan boshlab hisoblanadi.

2.TANLOV TASHKILOTCHILARI

2.1. G'ijduvon tuman Hokimligi (bundan keyin-"Buyurtmachi" deb ataladi) – tanlov tashkilotchisi hisoblanadi."Buyurtmachi" manzili : G'ijduvon tuman Mustaqillik maydoni 2-uy

2.2.Tanlov "Buyurtmachi" tomonidan tanlovlar o'tkazish bo'yicha tuzilgan Xarid komissiyasi tomonidan o'tkaziladi.

2.3.Tanlov G'ijduvon tuman Hokimligi "Buyurtmachi" tomonidan tuzilgan Xarid komissiyasi tomonidan qonunda belgilangan tartibda, belgilangan muddatlarda o'tkaziladi.

3.TANLOV ISHTIROKCHILARI

3.1.Tanlov mulkchilik shaklidan qat'iy nazar shu mazmunda ish va xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan, kamida 3 yil tajribaga ega bo'lgan barcha Yuridik maqomga ega bo'lgan tashkilotlar ishtirok etishi mumkin.

3.2.Tanlovda ishtirok etishi uchun talabgorlarga quyidagi malakaviy talablar qo'yiladi:

tanlov predmeti ishlar(xizmatlar)ni bajarish uchun zarur bo'lgan mehnat resurslari va mutaxassislarning mavjudligi;

- ob'yektning murakkablik darajasiga qarab, "lisenziya" va "guvohnoma"
- 684-Konun 13-moddatiga rioya etilishi shart
- Moddiy-texnika bazasi xamda tashkilotning orgtexnika ruyxati uskunalar
- Baxtsiz xodisalar bulgan vaziyatlarda ishchi xodimlarning xayoti sugurtalanganiligi
- Texnika xafsizligi koidalariga rioya kilish talablari xamda yuriknomalari
- Ishchi xodimlarning diplom nusxalari, mehnat daftarchalari yoki mehnat.uz sayti orqali ro'yxatdan o'tganligi to'grisidagi hujjat
- Bajarilgan ishlarga beriladigan kafolat muddati
- Shu soxada oldin kilingan ishlari bo'yicha buyurtmachilar bergan tavsifnomalari

3.3.Agar tanlov predmeti bo'lgan ishlar (xizmatlar) nibajarish bilan bog'liq faoliyat qonunchilikka binoan lisenziyalashtirishi zarur bo'lsa, tanlovda ishtirok etish uchun belgilangan tartibga muvofiq tegishli lisenziyaga ega bo'lgan talabgorlarga ruxsat etiladi.

3.4.Quyidagi talabgorlarga tanlov jarayonlarida ishtirok etishga ruxsat berilmaydi:

qayta tashkil etilish(ajralishi, qo'shilish), tugatish yoki bankrotlik arafasida turganlar; mol-mulki musodara qilinganlar, hamda muassislik kelishuv, moliyaviy ishtirok, xolding va boshqa shaklda ifodalangan bevosita tashkiliy-huquqiy yoki bir biriga moliyaviy qaramligi mavjudlar.